

O‘zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilingan she’rlarda leksik birliklarning berilishi

ToshDSHI Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik

(sharq tillari bo’yicha) mutaxassisligi

2-kurs magistranti Ramazonova Zebiniso

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek sherlarini koreys tiliga tarjima qilish muammolariga bag‘ishlangan. Maqolada o‘zbek va koreys she’riyati o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar k o‘rsatib berilgan.

Koreys kitobxonlarini o‘zbek she’riyati bilan tanishtirishda so‘nggi yillarda ayniqsa katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. 2011-yilda Mustaqilligimizning 20 yilligiga bag‘ishlab Cho‘lponning “Xalq” she’ri 10 dan ortiq xorijiy tillarga, xususan, koreys tiliga ham tarjima qilingan. Tarjima magistrant Yusupova Nigora tomonidan amalga oshirilgan. Shu bilan birga mashhur o‘zbek shoiri M.Yusufning “Talabalar madhiyasi” she’ri Abdugafurova Zilola tomonidan koreys tiliga tarjima qilingan.

Shu ishlarning izchil davomi sifatida o‘zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab “Zulfiya she’riyati” (“출피아 시집”) to‘plami nashr etildi. To‘plamga Zulfiyaning hayot yo‘li va ijodi, shoiraning tanlangan she’rlaridan jamlangan 20 dan ortiq she’rlari kiritilgan. She’rlarda shoiraning hassos ruhi, dil kechinmalari, irodasi qanchalik aks etgan bo‘lsa, tarjimada ham bu ruh saqlangan.

“Tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o‘z tilida asliymonand lisoniy vositalar tanlab iste’foda etishidadir. Bu mas’uliyat uning zimmasiga avvalo asliyat

ma'no va vazifasini bekami-ko'st idrok etish, so'ngra xotirasida shakllangan fikrni o'z tili madaniyati va me'yor asosida to'la-to'kis ifoda etish vazifasini yuklaydi"¹.

O'zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilingan Abdulhamid Cho'lponning "Xalq" she'rida leksik birliklarning tanlanishi alohida e'tiborga molik. She'r nomi koreys tiliga "민족" deb tarjima qilingan. "Xalq" so'zini ifodalovchi "민족, 국민, 겨레, 백성" so'zlari bo'lib, "Koreys tilining izohli lug'ati"da 민족 – so'zi xalq, bir hududda yashab til, madaniyat, tarix va boshqa jihatlariga ko'ra umumiy bo'lgan insonlar jamoasi; millat ma'nosini bildirsa, 국민 – millat, xalq ma'nolari bilan birga fuqarolik ma'nosini ham bildirib keladi. 겨레 – qarindosh; vatandosh; millat singari ma'nolarni anglatgani bois, aynan biz tanlagan ma'noga to'liq mos kelmaydi. 백성 so'zi esa mazmunan, oddiy xalq; amaldor bo'lmagan oddiy aholiga nisbatan ishlatiladigan so'z bo'lib, she'r mazmuniga yanada mos keladi. Bu o'rinda tarjimada ishlatilgan 민족 so'zi ham she'r mazmuniga to'la mos kelgan, deyish mumkin. She'rda qo'llanilgan sinonimlar tarjimasi ham alohida e'tiborga molik. Masalan,

Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdirkim to'xtatsin,

Quvvat yo'qkim xalq istagin yo'q etsin.

민족은 봉기하면 멈출 수 있는 힘도 없고,

민족의 소원을 없앨 수 있는 힘도 없다².

Bu yerda qo'llanilgan "kuch" va "quvvat" singari ma'noviy sinonimlar tarjimada "힘" tarzida berilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida quvvat so'ziga energiya, tirik mavjudotning, shuningdek, harakat qiluvchi har qanday jismning, biror jismoniy ish yoki harakat qila olish qobiliyati, kuch³ deb izoh berilgan.

She'rning koreys tilidagi tarjimasida "힘" asosan "kuch" 권력, 능력, 역량, 체력 va boshqa sinonimlari bo'lib, tarjimon "quvvat" so'zini bema'lol boshqa so'z

¹ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т., Фан, 2005. – Б. 68.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 – жилд. – М., 1981. – Б. 610.

bilan ifodalashi mumkin edi. Biroq har ikki soʻzning bir xil tarjima qilinishi ohangga boʻysundirilish maqsadida boʻlib, bu sheʼrning maʼnosiga katta taʼsir qilmagani holda, ohangdorligini taʼminlagan. Natijada sheʼrda oʻziga xos qofiyadoshlik saqlanib qolgan, misralar a-a-b-a (힘이다 – 복수이다 – 힘도 없고–힘도 없다) shaklida qofiyalanib, oʻzaro ohangdoshlikni saqlab qolgan.

Yuqorida keltirilgan misradagi “*isyon*” va “*qoʻzgʻalsa*” soʻzlarini ham bir xil tarjima qiladi, *isyon* soʻzi “봉기”, *qoʻzgʻalmoq* esa shundan yasalgan “봉기하다” feʼli bilan berib oʻtilgan. Holbuki, koreys tilida bunday tushunchani ifodalovchi soʻzlar juda koʻp: 봉기, 폭동, 반란, 소요, 반란을 일으키다 va boshqa soʻzlari toʻgʻri keladi. Tarjimada mazmun buzilmagan, faqat sinonimdan foydalanilmagan xolos.

“Pragmatik adekvatlikka erishish asliyat matnini tashkil etuvchi barcha til hodisalari tarjimasiga ijodiy yondashgan holda, tarjima tilida mavjud sinonimik variantlarning qaysi biri ushbu matniy holatga koʻproq mos kelishini muayyan qilish zarurati tugʻiladi. Zero, muayyan fikr asliyat tilida bir ifoda vositasi yordamida bayon etilsa, tarjima tilida moddiy jihatdan oʻzgacha ifoda vositasi orqali maqbulroq aks ettiriladi”⁴.

Mazmunga mos holda, tarjimon “반란” deb tarjima qilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Sheʼrning tarjima matnida *isyon*, *qoʻzgʻolon* maʼnosini bildiruvchi “봉기” soʻzi 4 marta qoʻllangan! Asl manbadagi ikki marta *isyon* va ikki marta *qoʻzgʻalmoq* soʻzlari tarjimada bir soʻz bilan berilgani bois takror holat yuzaga kelgan.

Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi jumlasida “toj” soʻzi oʻrniga 왕 (hukmdor) soʻzi ishlatilgan. Adekvatlikka erishish uchun bu oʻrinda “왕관” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq keladi.

Shuningdek, “..*Bir qoʻzgʻalur, bir koʻpirar, bir qaynar..*” misrasi “봉기도 하고, 화도 내고, 거칠어지도 하고..” (*isyon* qilar, dargʻazab ham boʻlar, qoʻpol ham

⁴ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.,Фан, 2005. – Б. 79.

bo‘lar) tarzida tarjima qilingan. Bu esa asl manbadagi mazmunni yetkazib bera olmaydi.

Ba‘zan tarjimon matn talabi bilan asl matnda aks etmagan leksik birlikni qo‘llashi ham mumkin. Maqsad imkon qadar tarjimani adekvatlashtirishdir. Jumladan, Zulfiyaning “Soy kechasi” she‘ri so‘ngidagi “*Oy yorimni yodimga soldi*” misrasi “빛나는 달을 보고 나는 내 사랑이 기억 나서..” (nur sochayotgan oyni ko‘rib sevgim yodimga tushdi) deb beradi. Oyni ko‘rgan shoiradan ko‘ra oy nuridan yorini qo‘msagan shoira koreys kitobxoniga oson yetib boradi. Chunki koreys adabiyotida oy nuri yolg‘izlikni anglatgan.

Shoiraning “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘ri tarjimasi ham juda mahorat bilan amalga oshirilgan. Avvalo she‘r nomi “봄이 당신을 찾아왔어” (*Bahor sizni izlab keldi*) deb o‘girilgan. Koreys tilida ikkinchi shaxs kishilik olmoshi 3 xil shaklga ega bo‘lib, so‘zlovchidan darajasi yoxud yoshi past bo‘lgan odamga 너, teng bo‘lganda 자네, yuqori bo‘lganda 당신 ishlatiladi. Shuningdek, yozma uslubda 당신 qo‘llanilib, hozirgi so‘zlashuv tilida bu so‘z umumiy “siz” ma‘nosini yo‘qotib, faqatgina er-xotinlar bir-biriga murojaat qilishganda 당신 deb murojaat qilinadi. She‘r nomidanoq she‘rning shoira turmush o‘rtog‘iga atalgani oson anglashiladi va havolada unga izoh berilgani uni yanada tushunarligini ta‘minlaydi. “So‘roqlamoq” so‘zi ham mazmunga juda mos 찾아왔어 (izlab keldi) tarzda tarjima qilingan.

She‘rda “*Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni..*” jumlasida uchraydi. Shoira *bag‘ir* so‘zini o‘z ma‘nosidan boshqa ma’noda ishlatib ijodiy yondashadi. Tarjimon ham tarjimada adekvatlikni juda a‘lo darajada saqlab qolganining guvohi bo‘lamiz: “여보, 당신이 봄을 얼마나 좋아했는지”. 여보 erkalash so‘zi bo‘lib, asosan, oilada er yoki xotin bir-birini chaqirganda shunday murojaat qilinadi.

Biroq “*O‘rik gullarining eding maftuni*” jumlasida “*o‘rik guli*” tarjimada “자두나무”(olcha daraxti) deb noto‘g‘ri o‘girilgan. Bu o‘rinda “살구 꽃” deb berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

“So‘z birikmasi, sintagma, jumla, abzats, bob va butun boshli asar qatori alohida lisoniy vosita, hatto goho yordamchi so‘z ham, goho tarjimaning asosiy birligi hisoblanadiki, asarning g‘oyaviy-badiiy qiymatini, ohangini tiklash, undagi personajlar nutqi tasvirini asliymonand qayta yaratish har bir unurning to‘g‘ri, muallif unga yuklagan vazifaga ko‘ra tarjima qilinishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu hol asar tarjimasining to‘laqonli jaranglashi uni tashkil etadigan bemustasno barcha tarkibiy qismlarining adekvat talqin etilishiga vobasta ekanligidan kelib chiqadi. Demak, tarjimaning bekami-ko‘st jaranglashida asosiy ma‘noni tashuvchi leksik birliklarninggina emas, balki predloglar, bog‘lovchilar, artikllar kabi tillar yordamchi vositalarining ham to‘g‘ri idrok etilishi va ijodiy o‘g‘irilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki asar tarkibidagi har bir unsur, katta-kichikligidan, asosiy yoki yordamchiligidan qat’iy nazar, muayyan ma’no va uslubiy vazifaning yuzaga kelishida ma’lum ahamiyat kasb etadiki, uning yetarli darajada baholanmasdan tarjimon e’tiboridan chetda qolishi yoki yanglish tushunilishi nafaqat shu birlik ma’no va vazifasining, balki butun jumla mazmunining, muallif nazarda tutgan fikrning noto‘g‘ri talqiniga olib keladi⁵”.

“Bahor keldi seni so‘roqlab” she’rida tarjimon mahorati shunda ko‘rinadiki, u asl manbada bir necha bor qo‘llangan “*qidirib chiqmoq*” so‘zining tarjimalarida nihoyatda topqirlik bilan turli sinonimlardan foydalangan.

She’rda bahor shoir yurgan bog‘larni qidirib chiqqan bahor koreyscha tarjimada “공원을 우왕조앙했다” deb beriladi, ya’ni bahor qidiribgina chiqmaydi, bog‘larda iztirob bilan yelib-yuguradi, shoirni izlab bog‘larda betoqat, beorom chopadi. “Yashil yaproqlarni qidirib chiqqan” bahor koreyscha tarjimada (“나무 잎 하나하나에게 당신이 어땠는지 물어봤다”) daraxt yaproqlarining har biridan shoir qaydaligini so‘rab chiqadi. Shu orqali tarjima yanada ta’sirli chiqqan.

Tog‘lardan shoirni topa olmay sabri tugagan bahor tog‘ toshlarini soylarga qulatsa, tarjimada *daryoga* qulatadi. 강 – daryo bo‘lib, soy (ikki adir yoki

⁵ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т., Фан, 2005. – Б. 71.

togʻ oraligʻidagi pastlik joy, suv yoʻli⁶)ni “Soy kechasi” sheʼrida 개울 deb tarjima qilingan. 개울 – pastlikda oqib tushadigan kichkina daryo oʻzani. Bunday tushunchaga mos keluvchi yana bir soʻz 개천 – jilgʻa, soyga toʻgʻri kelsa-da, tarjimon bu soʻzlarni tanlamagan. Negaki, koreys sheʼrxoni tasavvurida suv yigʻiladigan kichkina anhor yo oʻzandan koʻra daryoga toshlarni qulatish jonliroq chiqadi.

Shoirni topa olmagan “*Horib-charchab kelgan, toqatlari toq*” bahor koreyscha tarjimada “쓰러질듯 말듯 한 모습으로 돌아왔더라” (hushdan ketay deb turgan qiyofada qaytdi) deb beriladi.

“*Sekin xabar berdi menga oʻzidan*” satrida esa tarjimada juda ham oddiy “자기 소개를 시작했어” (oʻzini tanishtirishni boshladi) deb oʻgiriladi.

H. Olimjon haqida shoiraga savol bergan bahor “*Qoʻshigi mavjlanib bir daryo oqqan*” yigit qaydaligini soʻrasa, tarjimada “ ‘삶의 노래’를 부르던 친구” “Hayot qoʻshigʻi”ni kuylagan doʻsti haqida soʻraydi. Adekvatlik saqlanmagan boʻlsa-da, koreys kitobxoniga tushunarli boʻlgan koreyscha ifoda yaratilib, mazmun yetkazib berila olingan.

Asliyatda bahor shoira yotogʻiga “*jilo boʻlib*” kirsam, tarjimada “몰래”(sezdirmay) kiradi, adekvatlikdan biroz uzoqlashiladi. Bu oʻrinda tarjimada “빛나게” yoki “빛이 되고” deb tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi.

“*Sekin xabar berdi menga oʻzidan*” misrasi esa “자기 소개를 시작했어” (oʻzini tanishtirishni boshladi) tarzida juda joʻn tarjima qilingan.

“*Baxtim bormi deya yakkash soʻroqlab*” misrasi “나도 행복을 얻을 수 있을까”라며 (“Men ham baxtimni topa olarmanmi”deya) deb berilgan. Holbuki, shoir baxtini “yakkash” (hamma vaqt har doim) soʻragan. Ammo tarjimon shunday berish orqali ohangni saqlagan, agar “나도 행복을 얻을 수 있을까”라곤 하며 deb berilganda sheʼrdagi ohangga putur yetgan boʻlardi. Negaki koreys sheʼriyatida sheʼr uchun eng muhim narsa bu ohangdir.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 – жилд. – М., 1981. – Б.65.

Asliyatdagi “*Meni she’rga o’rab suqlanib boqqan*” ifodasi tarjimada “나의 아름다움을 묘사하던 친구가 어디 갔어”(mening go‘zalligimni tasvirlagan do‘stim qayga ketdi?) deb beriladi.

Bir tomondan, shoirni izlayotgan bahor nutqida asliyatda yo‘q bo‘lgan do‘stim” (친구) murojaati tarjima matnda ajoyib o‘ziga xoslikni vujudga keltirgan.

Q. Musayev, til birliklarini to‘g‘ri tanlash yo‘li bilan adekvatlikka erishish mas’uliyati san’atkordan har bir ifoda, vosita ustida chuqur, mantiqiy fikr yuritishni talab etishini aytib o‘tgan edi⁷.

“*O‘rik gullariga to‘nmaydi nega?*” satri “왜 내가 가지고 온 자두 향기를 안 맡아 줄까?”(nega men keltirgan olxo‘ri gullari iforini his qilmaydi?) deb berilgan.

Asliyatdagi “*to‘nmoq*” fe’li “tikilib qaramoq” ma’nosini bildirib, uni 왜 살구 꽃을 안 살펴볼까요? deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Asliyat matnda bahor shoirning u keltirgan “*sho‘x nashidaga*” (sho‘x qo‘shiqqa) peshvoz chiqmayotganini so‘rasa, tarjimada “행복을 맞이하여” baxtga peshvoz chiqmayotganini so‘raydi.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,

Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast..

봄이 시작된 당신이 좋아하는 나라에서

당신의 목소리가 들려...

Tarjimada “*jo‘shqin, zabardast*” so‘zlari tushib qolgan. Bu oddiy ovoz emas, shoirning tirikligidan darak beruvchi, shoiraga ishonch bergan ovoz ediki, uni 당신의 목소리가 들려 (sizning ovozingiz eshitildi) tarzida jo‘n tarjima qilingan. Biroq, bu yerda tarjimon ohangni ham e’tiborga olgan. Koreys she’riyati uchun muhim bo‘lgan ohangdorlik tarjimada ham muhimdir.

“Badiiy asar tarkibini tashkil etadigan har bir lisoniy unsur, tilning asosiy yoki yordamchi vositasi bo‘lishidan qat’iy nazar, muayyan mazmun va uslubiy vazifa ifodasi uchun qo‘llaniladiki, tarjimada ulardan birortasining e’tibordan soqit

⁷Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Т., Фан, 2005. – Б. 73.

qilinishi yoki ular uchun tarjima tilida mazmunan va usluban mos, mantiqiy asosli vositalarning qidirib topilmasligi adekvatlikning yuzaga kelishiga monelik qiladi.

Lisoniy vositalar qator nutqiy holatlarda o'zlarining an'anaviy-lug'aviy ma'nolaridan ma'no kengayishi hodisasi asosida uzoqlashib, kontekstual ma'no belgilari kasb etadilar-ki, ularni talqin etishda ikki til vositalarining lug'aviy monandligidan qochib, vazifaviy uyg'unlik yo'lidan borish pragmatik adekvatlikni ta'minlaydi⁸. Shunday holatni quyida ham kuzatish mumkin:

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,

Hayotni kuylayman, chekinar alam..

여보, 우리 이별은 마음에, 당신의 볼펜은 내 손에 쥐어 있어,

인생을 찬미하며 나의 비참함을 잊도록 최선을 다 하고 있어...

Asliyatdagi soz so'zi o'rniga tarjimon 볼펜 (qalam) so'zini qo'llagan. Vafot etgan shoirning qalami shoira qo'lida ekanligi, uning so'zi, sozi o'lmasligi, uning qalami Zulfiya so'zi bilan yashashi koreys she'rxoni uchun nihoyatda tushunarli bo'ladi.

She'rda bir necha o'rinlarda *shamol*, *shabboda*, *yel* singari sinonim so'zlar qo'llanilgan bo'lib, bular tarjimada 봄바람 (bahor shamoli), 바람 (shamol) so'zi bilan berilgan. Koreys tilida *shamol* so'zining bir necha sinonimlari bor: 산들바람 (toza salqin shamol), 강풍 (kuchli shamol), 미풍 (yengil shamol), 폭풍 (bo'ron), 계절풍 (musson) va hokazo. Tarjimon bu o'rinda 봄바람, 바람 so'zlari bilan birga 산들바람, 미풍 so'zlarini keltirishi mumkin edi.

Tarjimonning so'z tanlash mahorati nafaqat she'rlar mazmunida, avvalo, she'rlarning sarlavhasi tarjimasida ham yaqqol namoyon bo'ladi: "Umr o'tmakda" – "흘러가는 인생" (oqib borayotgan umr), "Orzuga ayb yo'q" – "꿈"(orzu), "Bolakay" – "불행의 아이" (bechora bola), "Men o'tgan umrga" – "과거 돌아보기"(o'tmishga nazar) singari o'girilganki, bunda she'rning umumiy mazmuni, koreys kitobxoni dunyoqarashi inobatga olingan.

⁸ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т., Фан, 2005. – Б 77.

Tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilgan obrazli yoki hissiy-ta'sirchan lisoniy vositani, balki odatda amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi, deb tasavvur qilinadigan u yoki bu erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmasini o'g'irishda ham har doim o'sha vosita maznunini tarjima tilida qanday so'z yoki so'z birikmasi aniqroq va to'laroq ifoda etishi mumkinligi haqida bosh qotirishi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga ko'proq mos kelishi haqida o'ylashi, o'ziga doim nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etish mumkin, degan savolni berishi zarur⁹. Shoiraning "Sen qaydasan yuragim" she'ridan parcha:

Sovush bermaydi menga

Yoqib ketganing olov..

Tarjimada shunday jaranglagan:

나는 추울 수가 없다,

네가 만든 사랑이 있어서..

(men sovuy olmayman,

Sen yaratgan sevgi borligi tufayli)

Shoiraning qalbidagi olov bu ishq olovi, muhabbat alangasi edi. Shoiralar olovning taftidan emas, muhabbat olovidan sovumas edi. Tarjimon she'rga ijodiy yondashgan va koreys she'rxoni uchun mos mazmunni yarata olgan.

Qayga ketding yuragim

Bitdi bardosh va toqat.

Suhbatingdir tilagim,

Dilda hasratim qat-qat

어디 갔냐 내 마음아?

더이상 너 없는 곤경을 극복 못 한다.

다시 오랫동안 대화하고 싶고

나누고자 하는 말이 너무 많다.

⁹ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т., Фан, 2005. – Б 80.

(Qayga ketding, mening yuragim?

Ortiq sensizlik azobiga bardosh bera olmayman,

Yana uzoq suhbat qurishni istayman va

Sen bilan bo‘lishishni istagan gaplarim juda ko‘p)

Avvalo, so‘z tanlashda muallif oson va koreys kitobxoniga tushunarli tarzda tanlagan. Asliyatdagi a-b-a-b shaklidagi qofiyalanish tarjimada a-b-v-b shaklida ko‘chgan. *Bardosh* va *toqat* sinonimlaridan faqat biri qo‘llanilgan, shu orqali tarjimon 한다 – 많다 qofiyadoshligi hosil qilingan. Shu bois, uni “나누고자 하는 말이 너무 많다” – “Sen bilan bo‘lishishni istagan gaplarim juda ko‘p” deb tarjima qiladi, natijada qofiyadoshlik saqlanibgina qolmay, mazmunga putur yetmasdan, undagi poetik ta’sirchanlik ko‘chirilgan.

Shoiraning “Orzuga ayb yo‘q” she’ridagi:

Shu kunlarda qalb qo‘shiqqa tor,

Kunda bitta yozaman she’r.

요즘은 마음을 움직일만한 꿈이 없다,

따라서 하루에 시를 하나 밖에 못 쓰고 있다.

(Shu kunlarda qalbinga ta’sir qila oladigan orzuyim yo‘q,

Shu bois kunda bittadan ortiq she’r yoza olmayapman)

Tarjimon asliyatga yot tarjimani yaratgan. U har nima bo‘lganda ham asliyatni butkul o‘zgartirmasligi kerak. She’r – ko‘ngil ishi bo‘lganidek, uning tarjimasida ham san’atkorlik kerak. Tarjimon o‘z she’rini emas, shoir she’rini o‘z qalb oynasidan o‘tkazib yangitgan jonlantiradiki, unda ikki ijodkor tuyg‘ulari birlashadi.

“Bahor” she’ridan:

O‘tmishning behuda oni kabi qor,

Beiz, bedard erib ketar uchquni

겨울의 하얀 눈은 봄의 품 안에서

놓쳐버린 시간같이 사라져 간다.

(qishning oq qori bahor bag‘rida

O‘tib ketgan vaqt singari yo‘qolib bordi.)

She’rda tarjimon *beiz*, *bedard* so‘zlarini tarjimada bermasdan, qorni esa “*erib ketar*” deb emas, “*yo‘qolib ketar*” deb tarjima qiladi va mana shu yo‘qolib borishi uning *beiz*, *bedard* erishini ifodalagan.

Shoiraning “O‘rik gullaganda” she’rida:

Buncha issiq, buncha ham shinam,

Yoshlik kechgan torgina shu joy

Jumlasi quyidagicha tarjima qilinadi:

좁지만 우리 신혼부부가 지내던

이 집은 너무도 따스하고 편하게 느껴졌네.

(tor bo‘lsa-da ammo bizning yangi turmush qurgan paytimiz o‘tgan

Bu uy shunchalar ham issiq, shinam tuyular)

She’rda shoiraning turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon bilan birga yashagan uyiga borganidagi hislari ifodalangan. Shu bois, tarjimon “*yoshlik*” so‘zi o‘rniga tarjimada “*신혼부부가 지내던*” – “*ya’ni yangi turmush qurgan payti o‘tgan*” deb beradi. *Yoshlik payti* mazmunini ifodalovchi “*젊은 시절*” so‘zi bilan o‘girishi mumkin edi. Biroq, u konkretizatsiya usulidan foydalanib, umumiy mazmunni yanada tushunarli bo‘lgan xususiy mazmun bilan almashtiradi. Natijada koreys she’rxoniga yanada tushunarli bo‘lgan mazmun yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilingan she’rlarda so‘z tanlash, sinonim va antonimlardan foydalanishda tarjimon ham mazmun, ham ohangni saqlab qolishga harakat qilgan. Natijada koreys kitobxoni uchun o‘qishli she’riy tarjimalar yaratilgan deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulhamid Cho‘plon “Xalq” xorijiy tillarga tarjima. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. T.: 2011. – 20 b.
2. Zulfiya she’riyati. Tuzuvchi: U. Saydazimova, Tarjimon: N. Berdiqobilov, Kim Xyon Nyon. – T.: Istiqlol, 2015. – 79 b.

3. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М.: Издательство ИОСО РАО, 2001 – 224 с.
4. Елисеев Д. Д. Корейская средневековая лит-ра пхэсоль. М.: Наука, 1968. – 136 с.
5. Жўраев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982. – 60 б.
6. Иброхим Ғофуров.Таржимонлик мутахассислигига кириш. Т.: Мехридарё, 2008. – 118 б.
7. Комиссаров В. Н. Слово о переводе. – М.: Международные отношения, 1973. – 216с.
8. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2005. – 352 б.
9. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – 232 б.
10. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш—Т.: Ўқитувчи, 1978. – 221 б.
11. Саломов Ғ., Комилов Н., Салимова, Жураев К. ва бошқ. Таржимон маҳорати. – Т.: Фан, 1979. – 195 б.
12. Тонг мамлакати куйлари. – Т.: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. – 135 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғат. Икки жилдлик. 2-жилд. – М.: 1981. – 715 б.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. – М.: 1981. – 631 б.
15. 국어사전. 서울: 민중서관.1995. 340 쪽
16. 김대행.우리 시의 틀. 서울: 문학과비평사, 1989. – 340 쪽
17. 박목월.조지훈.박두진 3 인공동시집. 청록집(靑鹿集). 1946.
18. 박손의. 고산시가. 서울: 1957. 480 쪽.
19. 성기옥.한국시가의 율격의 이론. 서울: 새문사, 1986. – 402 쪽

Internet saytlari:

<http://blog.naver.com>

<http://blog.naver.com/PostView.nhn?blogId=korea1033&logNo=140054320739>
[&redirect](#)
<http://daum.net>
<http://jyosio.com.ne.kr>
<http://www.sijomunhak.com>